

**ABDULHAMID CHO'L PON VA ISMOILBEK GASPRALI IJODIDA
ADABIY TA'SIR MASALALARI**

Hojiyeva Shahlo,

*O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

sh.hojiyeva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Abdulhamid Cho'lpon tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gasprali bilan muntazam aloqada bo'lganligi, adabiy hamkorligi haqida so'z boradi. Ismoilbek Gasprali vafotiga bag'ishlab yozgan marsiyasi tahlil qilingan. Sharq va G'arbni bab-baravar bilgan nuktadon olimning adabiy merosi, jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: chorizm mustamlakasi, qatog'on girdobi, adabiy ta'sir, adabiy hamkorlik, ijodiy kamolot.

**ISSUES OF LITERARY INFLUENCE IN THE WORKS OF
ABDULHAMID CHULPAN AND ISMAILBEK GASPRALI**

Hojiyeva Shahlo,

*associate professor of the Department of uzbek literature,
doctor of philosophy in philology (PhD) at the National university of Uzbekistan*

Abstract. The article discusses Abdulhamid Cholpon's regular contact with the Tatar enlightener Ismailbek Gasprali and his literary collaboration. The elegy he wrote on the death of Ismailbek Gasprali is analyzed. The literary heritage of the articulate scholar, who knew both the East and the West, and his contribution to the Jadid movement are discussed.

Keywords: tsarist colonialism, vortex of repression, literary influence, literary collaboration, creative maturity.

**ВОПРОСЫ ЛИТЕРАТУРНОГО ВЛИЯНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛХАМИДА
ЧУЛПАНА И ИСМАИЛБЕКА ГАСПРОЛИ**

Хаджиева Шахло,

*доцент кафедры узбекской литературы,
доктор философии (PhD) по филологии
Национального университета Узбекистана*

Аннотация. В статье рассматривается постоянное общение и литературное сотрудничество Абдулхамида Чолпона с татарским просветителем Исмаилбеком Гаспрали. Проанализирована элегия, написанная Исмаилбеком Гаспрали на смерть поэта. Высказываются мысли о литературном наследии выдающегося ученого, знавшего как Восток, так и Запад, и его вкладе в движение джадидов.

Ключевые слова: царский колониализм, водоворот репрессий, литературное влияние, литературное сотрудничество, творческая зрелость.

**ABDULHAMİD ÇOLPAN VE İSMAİLBEK GASPRALI'NİN
ESERLERİNDEKİ EDEBİ ETKİLER**

Hacıyeva Şahlo,

Özbekistan Ulusal Üniversitesi

*özbek edebiyati bölümü doçenti,
Filoloji alanında Felsefe Doktorası (PhD)*

Özet. Makalede Abdülhamid Çolpon'un Tatar aydını İsmailbek Gasprali'yle düzenli teması ve edebi işbirliği ele alınıyor. Şairin ölümü üzerine İsmailbek Gasprali'nin yazdığı mersiye incelenmiştir. Doğu ve Batı'yı çok iyi bilen, etkili bir âlimin edebi mirası ve Ceditçilik hareketine katkısı üzerine düşünceler dile getiriliyor.

Anahtar kelimeler. Çarlık sömürgeciliği, baskı girdabı, edebi etki, edebi iş birliği, yaratıcı olgunluk.

Cho'lpon Turkiston chorizm mustamlakasi iskanjasida bo'lgan murakkab davrda dunyoga keldi. Jahonning turli hududlarida esayotgan ozodlik shamoli faqat mustamlaka o'lkalarda emas, mustamlakachi davlatlar, jumladan, Chor Rossiyasining o'zida ham katta to'ntarishlar sodir etdi. Birinchi jahon urushi yetkazgan aziyatlar Turkistonda ham xalq hayotining bir necha baravar og'irlashuviga sabab bo'ldi. Bu urushdan so'ng siyosiy o'zgarishlar, tarixiy voqealar almashinuvi shu qadar tezlashdiki, natijada millatning asl farzandlari – ziyolilari qatag'on girdobiga tushdi. Xususan, Turkistonda muxtoriyat o'rnatilishi va uning qirg'in bilan tugatilishi, sho'ro tartibining zo'ravonlik asosida o'rnatilishi, fuqarolar urushi, qatag'onlar – bular sodir bo'lgan voqealarning asosiylari, xolos. Ikkinchi tomonda inqiroz, qoloqlik va jaholat botqog'ida o'zini-da yemirayotgan millat boshiga tushgan kulfatning og'ir yuki. Ana shu voqealar "tug'ma shoir" – tug'ma idrok va iste'dod egasining beg'ubor yoshlik ayyomini to'zonlar bilan to'ldirgani shubhasiz. Shuning uchun ham unda olamga, atrof-muhitga va tarixiy vaziyatni o'zgartirishga qodir kuchlarga munosabat juda erta shakllandi.

Jadidchilik – jamiyat hayotining barcha jabhalarini birday qamrab olgan, yangi adabiyotning shakllanishi va rivojini ta'min etgan siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma'rifiy harakat ekani ayon. Bu harakatning yana bir ahamiyatli jihati, erksevar ziyolilarning Vatan va millat manfaatlari yo'lida birlashtirganidir. Yangi o'zbek she'riyatining asoschilaridan hisoblangan Abdulhamid Cho'lpon ham, boshqa jadidlar ham Turkiston jadidchilik harakatining boshchisi Ismoilbek Gaspralini o'zlariga ustoz, yo'lboshchi sifatida e'tirof etgan edi. Millat ziyolilarini "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi atrofida birlashtirishda bu ulug' mutafakkirning xizmatlari beqiyos. Yurt ozodligi uchun kurashish, millatning ma'rifatini yuksaltirish, adabiyot, teatr va maorifni shu maqsad sari safarbar etish Ismoilbek Gasprali uchun hayotiy a'mol bo'lgani rost. Profesor Begali Qosimov Ismoilbek Gaspraliga shunday ta'rif bergan edi: "Bu nom yuz yil muqaddam turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar. U chiqargan "Tarjimon gazetasining 25 yillik to'yida Xitoyning "Tarancha"sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1911 yilda uning "Xo'jai sibyon" ("Bolalar muallimi") kitobi Bombeyda bosildi. Muallifni Hindistonga taklif etadilar. Bir yil esa Fransiyaning eng e'tiborli jurnallaridan "Revyu dyu monde musulman" uning millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini "Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti"ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko'p matbuot organlari qo'llab-quvvatlab chiqqan edi"³

Ijodiy-intellektual salohiyati yuqori ekani, buning she'rlari va maqolalarida aks etgani bois Cho'lpon, adabiyotshunos olim Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda, "uchinchi muallim", ya'ni Ismoilbek Gaspirinskiy nazariga tushdi. "U (Gaspirinskiy – ta'kid bizniki – Sh.X.) barcha turkiy xalqlarni ilm-ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko'rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga – xalqning ravnaqi va muhofazasi yo'liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-

³ Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2022. – Б. 162.

pastidan xabardor, tarix va taqdirni teran anglagan. Sharqni ham, G'arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko'rgan bir kishining aniq va rejali xatti-harakati edi"⁴.

Shoir qalamiga mansub "Ma'rifatparvar bobomiz Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqinda ta'zianomamiz" sarlavhali marsiya Turkiston jadidlari otasining xotirasi yod etilgani bilan alohida ajralib turadi. Turk dunyosini yagona "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi atrofiga birlashtirish, jahondagi taraqqiyot bilan hamnafas xalqlar maqomiga yetkazishdek ezgu maslakni mahkam tutgan buyuk mutafakkirn, o'zbek jadidlarining barchasi qatorida Cho'lpon ham hurmat qilgan, e'zozlagan. Yosh shoir 1913 yili "Tarjimon" tahririyatiga xat yozgan. Ismoilbek bu yorqin iste'dod egasining maktubini va unga o'z javobini gazetada e'lon qilgan ("Tarjimon", 1913 yil 27 noyabr, 251-son). Muharrirning: "bizdan daha go'zal so'yladigi" degan e'tirofi Cho'lpon iqtidorining munosib e'tirofi edi. Shundan keyin ular o'rtasida yaqin munosabat o'rnatilgan. Gasprali yosh maslakdoshiga o'gitlarini bitadi. Uning: "Adabiyot o'ta yonmaz, suva botmaz. Lokin yondironlari yondirir, botironlari botirir; suva dagil, cho'mira, balchiqa botirir!"⁵ – kabi fikrlari Cho'lpon uchun hayot va ijod maslagini belgilashda beqiyos yo'riq vazifasini o'tadi. Gasprali faoliyatiga baho berganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo'lgan"⁶ deya yuksak baho berishi sababi ham shunda. Buyuk ustozidan ayriliq Cho'lpon ko'nglida chuqur anduh paydo qildi. Ulug' mutafakkirning so'nmas yodiga adadsiz hurmatini shoir mana bunday talqin qilgan:

Muttakoi ahli islom erdingiz,
Millatimiz yo'lida jon erdingiz.
Ey bizi uyg'otguchi ustodimiz,
Iftixori ravnaqi islomimiz.⁷

Shoir ustozini "muttakoi ahli islom", "bizi uyg'otg'uchi ustod", "iftixori ravnaqi islom", deya ta'riflaydi. Millat fidoyisi bo'lgan bu ulug' siymoning "eskilarni tor-mor qilgan"i haqida yozar ekan, bu orqali maktab-maorifni, o'qitish tizimini mutlaq yangilagani, milliy matbuotni yo'lga qo'ygani, millat hayotining barcha jabhalarini isloh etishga bor bilimi va salohiyatini safarbar etgani nazarda tutiladi. Lekin afsuski, ajal oltmish besh yoshida Ismoilbek Gaspirinskiyni o'z domiga tortdi:

Eskilarni qildingizkim tor-mor,
Joyingiz jannatda bo'lsun barqaror.
Oltmish beshda siza yetti ajal,
Bu ajal no'sh etkizubdur bemahal.

Masnaviy janrida bitilgan ushbu marsiyaning har bir bayti yangi tasviriy ifodalar bilan boyitilgani jihatidan ahamiyatli. "Millat(n)ing porloq charog'i", "biz jujuqlarni bobosi" singari ta'riflar tuyg'uning samimiyligi va rostligi, ulug' siymoga bo'lgan ehtirom tuyg'usining kuchliligi bilan alohida ajralib turadi:

Millat(n)ing porloq charog'i o'chti, oh,
Biz jujuqlarni bobosi ko'chti, oh.
Ey Hamidiy, qil duoni doimo,
Vasfinga ojiz erurmiz ohu oh⁸.

Umuman, ushbu she'r chuqur mazmun va hazin ritmni uyg'unlashtirgani, shoir lirik kechinmalarini yuksak badiiyat bilan ifodalagani kabi fazilatlar bilan marsiya janrining nodir namunasidir.

⁴ Қосимов Б. Учинчи муаллим (Сўз боши).Исmoilбек Гаспиринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.4

⁵ Гаспринский И. Андажондан ўлан савола жавоб. // Таржимон, 1913 йил 27 ноябрь, 361-сон.

⁶ Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 162.

⁷ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.16.

⁸ Чўлпон. Танланган асарлар. Жилд I. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 16.

Cho'lpon 1914-yilda nafaqat butun turkistonliklarni, balki barcha turkiy xalqlarni larzaga keltirgan, bu haqiqatni o'ylab ko'rishga chaqirgan ilk tanqidiy maqolasini "Adabiyot nadir?" ni yaratdi. U "Sadoi Turkiston" gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni e'lon qilingan. Bu maqola, tom ma'noda, Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk asarlaridan biridir. Cho'lpon bu maqolani yozganida 16 yoshda bo'lgan. Maqola shaklan juda ixcham bo'lsa ham, mazmunan juda teran. Undagi g'oyalar va mulohazalar shunday haqiqatki, 16 yashar ijodkorning shu qadar ziyraklik bilan tafakkur qilganiga qoyil qolasiz. Maqola chuqur masalaga qaratilgan bo'lib, bu vaqtgacha adabiyot yaratilgandan buyon uning vazifasi, maqsadi, nima ekanligi haqida bahsli munozaralar bo'lib turardi. Ammo bu haqida 1914 yilgacha aniq bir javob berilmagan edi. Cho'lponning bu maqolasi aniq bir javob bo'ldi. Bu haqida munaqqid Ozod Sharafiddinov shunday fikr bildiradi: "Cho'lpon o'z izlanishlarida yolg'iz emas edi... Xuddi shu davrda bunday izlanish faqat turkistonlik ziyolilar o'rtasidagina sodir bo'lgan emas. Xuddi shu yillarda qo'shni Qozog'istonda ham, Ozarbayjon yohud tatarlar yurtlarida ham adabiyotning, mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlash harakati ancha avj olgan edi. Natijada "adabiyot nadur?" degan mangu savolga turli mintaqalarda bir-biriga yaqin javoblar paydo bo'la boshlagan edi. Ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda yoxud Abdurahim Haqverdievlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To'qay yoxud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalili bo'la oladi"⁹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abdulhamid Cho'lpon tatar va boshqird ma'rifatparvarlari bilan muntazam aloqada bo'ldi. Ismoilbek Gasprali, Ahmad Zaki Validiy, Abdulla To'qay qalamiga mansub tarixiy-adabiy asarlarni muttasil mutolaa etdi, ular ijodidagi yangicha estetik mezonlarni qabul qildi. Tatar-boshqird ma'rifatparvarlari ijodiy yutuqlarini, ular orqali rus va jahon adabiyoti tajribalarini qunt va sabot bilan o'rgandi. Bular barchasi yorqin iste'dod egasi bo'lgan Cho'lponni tobladi, uning ijodiy kamoloti uchun asos-zamin vazifasini bajardi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гаспринский И. Андажондан ўлан савола жавоб. // Таржимон, 1913 йил 27 ноябрь, 361-сон.
2. Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016.
3. Шарафуддинов О. Адабиёт надир (Адабий-танкидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар китобидан) . – Тошкент: Чўлпон, 1994.
4. Қосимов Б. Учинчи муаллим (Сўз боши).Исмоилбек Гаспиринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 162.

⁹ Шарафуддинов О. Адабиёт надир (Адабий-танкидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар китобидан) . – Тошкент: Чўлпон, 1994. – Б. 5-7.